



## BUGUNGI ADABIY JARAYONDA DRAMATURGIYA

**Jo'rayeva Feruza**

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti O'ZMPU  
Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi  
401-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: **To'xtayeva Nargiza**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolaada dramaturgiya haqida, hozirgi kunda dramatik asarlar yozib, faoliyat olib borayotgan ijodkor Latif MAhmudov hayoti va ijod yo'llariga to'xtaliladi.

**Kalit so'zlar:** Chinor, bobo, drama, yozuvchi, teatr, kinofilm, tillar, sahna asarlari, yaxshilik, insoniy fazilatlar, bolalar, Salim bobo

**Аннотация:** Данная статья посвящена драматургии, жизни и творческому пути Латифа Махмудова, современного писателя и драматурга.

**Ключевые слова:** Платан, дедушка, драма, писатель, театр, кино, языки, пьесы, доброта, человеческие качества, дети, Салим Баба

**Abstract:** This article focuses on dramaturgy, the life and creative path of Latif MAhmudov, a contemporary writer and playwright.

**Keywords:** Plane tree, grandfather, drama, writer, theater, film, languages, stage plays, goodness, human qualities, children, Salim grandfather

### KIRISH

Dramatik asarlar o'qish uchun emas, balki teatr sahnasida ijro etish uchun yoziladi. Asosiy mazmun qahramonlarning o'zaro suhbat (dialog) yoki ichki kechinmalari (monolog) orqali ochib beriladi. Dramatik asarlar rollarga bo'linib, teatrlarda sahnalashtiriladi. Odatda parda, ko'rinish va sahnalardan iborat bo'ladi. Drama aslida hayotda uchrab turadigan muammolarni fojiasiz ifoda etuvchi janr turiga kiradi. Asosan, yomon illatlar to'g'ridan - to'g'ri qoralanmasdan, hajv ostiga olinib yoziladi. Ushbu maqolada dramaturgiya sohasida ham qalab tebratayotgan Latif Mahmudovning ijodiy faoliyati bilan tanishib chiqamiz.

### ASOSIY QISM

Respublikamizning eng yirik yozuvchilaridan biri Latif Mahmudov hozirgi kunga qadar bir qancha roman va hikoyalari asosida bir nechta filmlar suratga olinganligi va spektakllar sahnalashtirilganligi bilan ham dramaturgiya sohasida mashhurdir. Uning yozgan ijodiy namunalari ommabop bo'lib, mamlakatimiz yoshlari va talabalri tomonidan katta qiziqish bilan o'qiladi. U 1933- yilning 1 iyul kuni Toshkent shahrining Mirobod mahallasida tug'ilgan. Ko'plab yozuvchilarimiz qatorida Mahmudov ham jurnalistika fakultetini tamomlaydi. U o'z faoliyatidini birinchi marta Respublika radiosida boshlaydi va 1958-yilda bolalar va o'smirlar dasturining yangi muharriri etib tayinlanadi.

Ijodiy faoliyatini 1956-yillardan boshlaydi. Uning hozirgi kunga qadar 30 dan ziyod asarlari nashr etilgan. Dramaturg sifatida esa “Qirg’iy olib qochgan bola”, “Ali-Vali”, “Muhim topshiriq”, “Sirli xat” nomli dramatik asarlarini yaratgan.

Latif Mahmudov adabiyot olamiga “Chinor” nomli dastlabki hikoyasi bilan kirib kelgan. Ushbu hikoyada Salim boboning har kuni ertalabdan kechgacha chinorning tagida o‘tirishlari bolalarga boshqacha tuyulishi bilan boshlanadi. Agar ushbu asar tahliliga ko‘z tashlaydigan bo‘lsak, bolalarning Salim boboni nega uyerda o‘tirishlarini bilish yo‘lidagi harakatlari aslida, yomon niyatda emas, balki ularning bilmasligidandir. Ammo supa yonida o‘tiradigan Salim bobo uchun bu joy xotiralar maskanidir. Bu chol uchun farzandi bilan muloqot qilishning yagona vositasi ham aynan shu chinor va supalar edi desak mubolag’a bo‘lmaydi. Supaning o‘pirilishi esa bobo uchun o‘g‘lidan qolgan ma’naviy va ruhiy bog‘liqlikning uzulishidek go‘yo.

Ushbu asarni kinoteatr yoki televizorlarda ham ko‘rgandirsiz. Asarning eng ta’sirli joyi – Salim otaning xassasini suvga tiqib, ko‘zoynagini qidirish voqealaridir. Aynan mana shu sahna esa insonning ojizligini juda teran ochib bergan. Yozuvchi ushbu hikoya orqali bitta haqiqatni kitobxonga anglatmoqchi bo‘ladi. Ya’ni, bir insonni bilmay turib boshqalarning muqaddas tuyg‘ulariga, xotiralariga daxl qilmaslik kerak. Bolalarga hamisha kattalarga yordam berishga, yaxshilikka, ajoyib inson bo‘lib kamol topishlariga da’vat etuvchi asardir.

Latif Mahmudovning yozgan asarlari rus, ukrain, belorus, latish, gruzin, ozarbayjon, qozoq, qirg‘iz, turkman, tojik tillariga tarjima qilingan. Yozuvchi “Lolalar” nomli to‘plami uchun G‘afur G‘ulom nomidagi mukofotiga sazovor ham bo‘lgan.

### **XULOSA**

Latif Mahmudov yaratgan asarlari o‘zining tarbiyaviy va axloqiy ta’sir darajasi bilan ajralib turadi. Uning hikoyalaridagi voqealar ketma-ketligini o‘qirkansiz, buni boshingizdan o‘tkazgandek his qilasiz. Achinasiz, ba’zi qismlarida yolg‘izlik hissini qalbingizda his qilib ko‘rasiz. U o‘z roman va qissalarini ko‘proq talabchan va o‘smirlarning didi, ruhiga mos ravishda yozishi, kitobxonlar tomonidan bu hikoyalari sevib o‘qilishi bilan ham tahsinga sazovordor.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Jabborov, N. O‘zbek bolalar adabiyoti antologiyasi. Toshkent: “O‘qituvchi”, 2006.
2. Qo‘shjonov, M. O‘zbek adabiyoti masalalari. Toshkent: “Fan”, 1980.
3. Safarov, O. O‘zbek bolalar adabiyoti. Toshkent: “O‘qituvchi”, 2001.
4. Karimov, H. “Latif Mahmudov qissalarida xarakterlar tasviri”. O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 2015-yil, 4-son.
5. Ismoilova, Z. “Latif Mahmudov ijodining pedagogik ahamiyati”. (Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami), Namangan, 2019.
6. <https://n.ziyouz.com>
7. <https://arboblar.uz>